

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA KIRISH VA DAVLAT XIZMATINI O'TASHNING
TARTIBLARI

O'razbayev Beksulton Ilyasovich

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasi YU-1 guruh talabasi.

Tel: +998-99-590-33-66.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879401>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat davlat xizmatiga kirish va xizmatni o'tash tartibi to'liq keltirilgan. Unda shaxslarni davlat xizmatiga qabul qilish, tayinlash va martaba oshirish bilan bog'liq huquqiy asoslar, talablar va bosqichlar o'rjiniladi. Maqolada tanlov jarayonida shaffoflik, meritokratiya va teng imkoniyatlar muhimligi ta'kidlangan, halol raqobat va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik tamoyillari ta'kidlangan. Bundan tashqari, maqolada davlat xizmatchilarining xizmat muddati davomidagi huquqlari, majburiyatları va batafsil yoritilgan. Unda davlat xizmatchilari uchun mayjud bo'lgan huquqiy himoya, ijtimoiy imtiyozlar va martaba oshirish imkoniyatlari, ularning farovonligi, mehnat xavfsizligi va kasbiy o'sishini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Davlat xizmatini rivojlantirirhsga qaratilgan xulosa va takliflar keltirilgan

Kalit so'zlar: davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmatiga kirish, mmeritokratiya, tanlov jarayoni, baholash, kompetensiya, davlat xizmatchisi, davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatini o'tash, rag'batlantirish, shaffoflik.

PROCEDURES FOR ENTERING THE STATE CIVIL SERVICE AND SERVING IN
THE CIVIL SERVICE

Abstract. This article provides a complete description of the procedure for entering the state civil service and serving in the service in Uzbekistan. It examines the legal framework, requirements and stages related to the admission, appointment and promotion of individuals to the civil service. The article emphasizes the importance of transparency, meritocracy and equal opportunities in the selection process, emphasizes the principles of fair competition and non-discrimination. In addition, the article describes in detail the rights, obligations and benefits of civil servants during their service. It analyzes the legal protection, social benefits and career advancement opportunities available to civil servants, their well-being, labor security and professional growth. Conclusions and proposals for the development of the civil service are presented.

Keywords: civil service, entry into the civil service, meritocracy, selection process, assessment, competence, civil servant, civil service, civil service transition, incentives, transparency.

ПОРЯДОК ПОСТУПЛЕНИЯ НА ГОСУДАРСТВЕННУЮ ГРАЖДАНСКУЮ СЛУЖБУ И ПРОХОЖДЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ

Аннотация. В данной статье дается полное описание порядка поступления и прохождения государственной гражданской службы в Узбекистане. В нем рассматриваются правовая база, требования и этапы, связанные с набором, назначением и карьерным ростом лиц на государственной службе. В статье подчеркивается важность прозрачности, меритократии и равных возможностей в процессе отбора, особое внимание уделяется принципам честной конкуренции и недискриминации. Кроме того, в статье подробно изложены права, обязанности и льготы государственных служащих в период их службы. В нем анализируются правовая защита, социальные льготы и возможности карьерного роста, доступные государственным служащим, а также вопросы, связанные с обеспечением их благополучия, сохранения рабочего места и профессионального роста. Были представлены выводы и предложения по развитию государственной службы.

Ключевые слова: государственная служба, поступление на государственную службу, меритократия, процесс отбора, оценка, компетентность, государственный служащий, государственная служба, продвижение по государственной службе, стимулы, прозрачность.

Davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar – ishga qabul qilish va tanlash jarayonlarida adolat, oshkoraliq va meritokratiyaga ko‘maklashuvchi asosiy tamoyildir.

Bu shaxslarning malakasi va qobiliyatidan kelib chiqqan holdagina davlat xizmatini egallash uchun teng imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, talab qilinadigan malaka va mezonlarga yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi javob beradigan barcha O‘zbekiston fuqarolari davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga tanlov asosida ishtirok etish huquqiga ega.

Tanlov jarayoni odatda test va suhbatlar, hamda nomzodlarning bilimi, malakasi, tajribasi va lavozimga muvofiqligini baholash orqali amalga oshiriladi. Nomzodlarni saralash jarayoni va ishga qabul qilish shaffof, ob’yektiv va holisona bo‘lishi belgilangan.

Ular jinsi, etnik kelib chiqishi, dini, ijtimoiy mansubligi yoki malaka talablari bilan bog‘liq bo‘limgan boshqa shaxsiy xususiyatlar kabi kamshitishning har qanday shakllaridan xoli bo‘lishi kerak. Asosiy e’tibor nomzodlarning o‘z vazifa va vakolatlarini lozim darajada bajarish uchun yetarli malakaga, imkoniyatlar va salohiyatga egaligiga qaratiladi. O‘zbekiston davlat fuqarolik xizmatida teng imkoniyatlar tamoyilini qo‘llab-quvvatlagan holda, fuqarolar manfaatlariga xizmat qiladigan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo‘sadigan professional, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishni maqsad qilgan. davlat fuqarolik xizmatiga fuqarolarning qabul qilinishi yoki mansablarni egallashi bir qator aniq mexanizmlar orqali amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Buning uchun talabgorlar muayyan huquqiy, tashkiliy hamda malakaviy talablarga javob berishi, o‘ziga yuklatilgan xizmat vazifalarini mas’uliyat bilan bajarish layoqatiga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda ko‘pgina mamlakatlarda davlat xizmatiga kirish uchun bir qancha talablar belgilangan bo‘lib, ulardagi mohiyat bir biridan unchalik ham farq qilmaydi. Ya’ni, talabgor shaxs avvalo tegishli mamlakatning fuqarosi bo‘lishi, o‘n sakkiz yoshga to‘lganligi, davlat tilini yaxshi bilishi, ma’lum darajada mehnat amaliyotiga egaligi, davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga javob berishi shart. Mana shu o‘rinda davlat fuqarolik xizmatiga xorijiy davlatlar fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning ishga qabul qilinishi tartib-taomili qanday degan haqli savol tug‘iladi.

Qayd etish joizki, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarorlari bilan o‘rnatilgan tartibda davlat fuqarolik xizmatchisi lavozimini egallashi mumkin ¹bo‘ladi. Fuqarolarning davlat xizmatiga qabul qilish jarayoni ham zamon talablari darajasida takomillashuvni talab etadi. Avvalo davlat xizmatiga kirishda fuqarolarning teng huquqliligi masalasi O‘zbekiston Respublikasining yangi ayni paytda amaldagi Konstitutsiyasida alohida modda bilan mustahkamlab qo‘yilishi bu sohada olib borilayotgan ishlarning ahamiyati dolzarbligini ko‘rsatadi.

Masalan, bugungi kunda nomzodlarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda ularning aniq yo‘naltirilgan kompetensiyalarni egallashi talab etiladigan asosiy jihatlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, mazkur jarayonning amalga oshirilishi ham yuqorida darajada shaffoflikni talab etadi va bu jarayonda ham jamoatchilik nazorati katta ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5843-son Farmoni

Zero, demokratik huquqiy davlat sari odimlayotgan har qanday jamiyatda davlat va fuqaro o‘rtasida o‘zaro bir biriga bo‘lgan huquq va majburiyatlarga asoslangan yuridik aloqadorlik mavjud bo‘ladi hamda mazkur munosabatlar turli demokratik shakl, vosita va usullar orqali amalga oshiriladi. “Davlat fuqarolik xizmati” to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tanlov asosida amalga oshirilshi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinishi belgilangan. Bundan tashqari chet el mutaxassislari va ekspertlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda egallashi mumkinligi, Chet el mutaxassislari va ekspertlarining xizmatni o‘tash tartibi hamda shartlari tegishli shartnoma asosida belgilanishi mumkinligi, Davlat fuqarolik xizmatiga o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, sudning qarori bilan muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilingan shaxslar, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslar, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar, hamda tibbiy xulosaga asosan sog‘lig‘ining holati davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash imkonini bermaydigan shaxslar qabul qilinmaydi.²

Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlovni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad ochiqlik, adolatlilik va davlat xizmatiga malakali shaxslarni xizmatga qabul qilishning samaradorligini ta‘minlashdan iborat. Tanlov jarayoni turli bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, ariza topshirish, arizalarni ko‘rib chiqish, test, suhbatlar, va baholash jarayonidan iborat bo‘ladi. Ushbu jarayonlar nomzodlarning tegishli lavozimlarga muvofiqligini aniqlash uchun ularning malakasi, ko‘nikmalar, bilimlari va malakalarini baholash uchun mo‘ljallangan. Davlat fuqarolik xizmatiga tanlov asosida nomzodlarni saralashning o‘ziga xos tartiblari va mezonlari odatda tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy xujjalalar bilan belgilanadi. Ushbu chora-tadbirlar eng qobiliyatli va malakali nomzodlarning davlat davlat xizmati lavozimlariga tayinlanishini ta‘minlash, davlat boshqaruvida samaradorlik, professionallik va halollikni rag‘batlantirishga qaratiladi. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekistan Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoniga asosan Davlat fuqarolik xizmati masalalari bo‘yicha vakolatli organ — Prezident huzuridagi Davlat xizmatini

² O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonuni O‘RQ-788-son

rivojlantirish agentligi etib belgilandi.³ Davlat fuqarolik xizmatiga xodimlarni ishga qabul qilish Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portalı – vacancy.argos.uz platormasi orqali elektron tarzda olib borish yo‘lga qo‘yildi. 2019 yilning 3 oktyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bu qarorda agentlikka bir qator funksiyalar yuklandi. Qarorda agentlikka davlat xizmati tizimini isloh qilish, xodimlarni tanlash va tayyorlash, maoshlar va unvonlarini belgilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, davlat xizmatining sifatini oshirish, davlat xizmatining samaradorligini va raqobatbardoshligini ta’minlash agentlikning asosiy vazifasi etib belgilangan.

Agentlik davlat xizmati tizimini isloh qilishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor beradi:

- Davlat xizmatining maqbul standartlariga muvofiq bo‘lgan davlat xizmatining milliy modelini shakllantirish;
- Davlat xizmatining strategik yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini aniqlash;
- Davlat xizmatining tashkiliy-tuzilmasini optimallashtirish;
- Davlat xizmatining monitoringi va baholashini takomillashtirish.

Agentlik xodimlarni tanlash va tayyorlashda quyidagi mezonlar va talablar asosida amalga oshiradi: Xodimlarni tanlashda raqobatbardosh, ochiq va shaffof usullarni foydalaniladi;

Xodimlarni tayyorlashda jamiyatning talablari va davlat xizmatining istiqbollariga mos bo‘lgan dasturlarni joriy etadi; Xodimlarni karyera rivojlanishiga qaratilgan tayanch va imtiyozlar bilan ta’minlaydi; Xodimlarni davlat fuqarolik xizmatining odob-axloq normalariga rioya etishlarini nazorat qiladi. Agentlik maoshlar va unvonlarini belgilashda quyidagi prinsiplar va kriteriyalar asosida amalga oshiradi: Maoshlar va unvonlar davlat xizmatining sifatini, samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi; Maoshlar va unvonlar xodimlarning malakasi, tajribasi, mas’uliyati va natijalariga bog‘liq holda belgilanadi; Maoshlar va unvonlarning davlat xizmati tashkiliy-tuzilmasi, strategik yo‘nalishlari va ustuvor vazifalariga mosligini tahlil qiladi; Maoshlar va unvonlarning davlat xizmati tizimida yagona va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi. Agentlik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali fuqarolarga quyidagi imkoniyatlar va afzalliklarni yaratadi: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat fuqarolik xizmatining aniq, shaffof va tezkor bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi;

³ “O‘zbekistan Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat fuqarolik xizmatining innovatsion, ijodiy va ilg‘or bo‘lishini stimullaydi; Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat fuqarolik xizmatining jamoatchilik bilan aloqa va hamkorligini rivojlantirishga aholi va fuqarolar o‘rtasida davlat xizmatiga ishonch hissini shakllantirishga ko‘maklashishni nazarda tutadi; Davlat fuqarolik xizmatchilarining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishi ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Agentlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezidentga bo‘ysunadi va uning buyruqlarini amalga oshiradi. Agentlikning boshlig‘i Prezident tomonidan tayinlanadi va uning faoliyati Prezidentning nazoratida bo‘ladi. Yuqorida gilarning natijasi o‘laroq davlat fuqarolik xizmatchilarining bilim va malakasini oshirib borish maqsadida bugungi kunda agentlik tomonidan davlat fuqarolik xizmatining yagona elektron axborot tahlil tizimi va uning tarkibida xodimlarni masofaviy o‘qitish bo‘yicha ilm.argos.uz platformasi hamda xodimlarning bilim salohiyatini avtomatik aniqlash imkonini beruvchi test.argos.uz platformasi joriy etilgan. 2021-yilning 19 mayida qabul qilingan “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida 2023 yil 1 yanvarga qadar davlat boshqaruvi organlarida kadrlar bilan ishslash yo‘nalishidagi byurokratik to‘sislarni, korrupsiyaviy xavfxatarlar va inson omilini qisqartirishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimning joriy etilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son Farmoni bilan 2020-yil 1- yanvardan boshlab Ishga qabul qilish tajriba tartibida tanlov asosida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi, “Xalq banki” AJ kabi davlat boshqaruvi organlari, va tashkilotlar yo‘lga qo‘yildi. 2021-yil 1-yanvardan boshlab — davlat fuqarolik xizmati nazarda tutilgan respublikaning barcha davlat organlari va tashkilotlarida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshirilishi belgilandi. Ochiq mustaqil tanlov asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinadigan shaxslar Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va tegishli ravishda uning filiallari bilan kelishmasdan turib lavozimdan ozod qilinmaydi. Davlat fuqarolik xizmatini tartibga solish, shu jumladan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ularning tashkiliy-shtat tuzilmalarini o‘zgartirish masalalariga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishib olinishi kerakligi belgilab qo‘yildi. 2022 yilning 08 avgustida qabul qilingan “Davlat

fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 29- moddasiga muvofiq davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatining bo‘sh turgan (vakant) lavozimini egallash maxsus vakolatli davlat organining axborot tizimi(vacancy.argos.uz) orqali o‘tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlardan asosida amalga oshiriladi. Ichki tanlovlarda faqat davlat fuqarolik xizmatchilari ishtirok etishi, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talablariga javob beradigan barcha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etish huquqiga egaligi qoida tariqasida kiritildi⁴. Qonunning 30-moddasiga ko‘ra Davlat fuqarolik xizmatiga kirayotgan shaxs bilan mehnat shartnomasi tuziladi. Mehnat shartnomasi Mehnat kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan yozma shaklda muayyan yoki nomuayyan muddatga tuziladi. Siyosiy guruhga kiruvchi lavozimlar bilan davlat fuqarolik xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi tuzilmaydi. Mehnat shartnomasida davlat fuqarolik xizmatini o‘tashning asoslari va shartlari, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqlari, majburiyatlar hamda javobgarligi, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklar, shuningdek uni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishga taalluqli qoidalar ko‘rsatiladi. Davlat fuqarolik xizmatchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga doir namunaviy talablar Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan belgilanadi. Davlat fuqarolik xizmatchisiga maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan shakldagi xizmat guvohnomasi beriladi. Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash muddati davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e’tiboran to davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilgan sanaga qadar bo‘lgan davrni qamrab oladi⁵.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlat xizmatiga kirgan fuqaro xizmat shartnomasini tuzayotganda va davlat xizmati lavozimini egallaganda rasmiy nizomga muvofiq xizmat vazifalarini bajarishga va davlat organining rasmiy normativ hujjatlariga rioya qilishga majburdir.

Aynan mehnat shartnomasini tuzish natijasida xodim va davlat organi o‘rtasida davlat fuqarolik xizmati munosabatlari vujudga keladi va fuqaro alohida huquqiy maqomga ega bo‘ladi.

Davlat xizmatchisining kasbiy xizmat faoliyati ma’muriy reglamentning ajralmas qismi bo‘lgan rasmiy normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonuni O‘RQ-788-son

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonuni O‘RQ-788-son

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. T:- 2023
2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi O‘RQ-788-son qonuni.
3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni.
4. “O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5843- son Farmoni.
5. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4472-son qarori.